



## O'QUVCHILARNI MASHG'ULOTLARDA KASB - HUNARGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI.

Saliyeva Dilorom  
Abdullayevna

QDPI Psixologiya kafedrasi mudiri,  
psixo.f.n., professor

**Annotatsiya.** Maqolada o'quvchilarni kasb – hunarga yo'naltirishning psixologik jihatlari va kasbiy tayyorgarlik, kasbiy faoliyatga qiziqish, kasbga moslashuv, kasbiy ma'rifat, kasbiy konsultatsiya, kasbiy diagnostika, kasbga yo'naltirish bo'yicha trening mashg'ulotlar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy tayyorgarlik, kasbiy faoliyatga qiziqish, kasbga moslashuv, kasbiy ma'rifat, kasbiy konsultatsiya, kasbiy diagnostika, kasbga yo'naltirish, kasb tanlovi, kasbiy bilim, kasbiy maslahat, kasbiy tashxis, kasbiy tarbiya

Insoniyat paydo bo'libdiki u har doim o'zini boqishga, ehtiyojlarini qondirishga harakat qilgan va hozirda ham shu yo'ldan bormoqda. Inson o'z ehtiyojlarini eng avvalo oziq – ovqat, boshipana, kiyim – kechaklarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdan boshlagan. Keyinchalik yangi sivilizatsiyalar paydo bo'lgach, ya'ni insoniyat madaniyatlashib borgan sari o'z ehtiyojlariga kerak bo'lgan maxsulotlarni ishlab chiqara boshlagan. Bular eng avvalo shu sohadagi kasb egalarini paydo bo'lishiga va jamiyatni shu maxsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga intilishlarni paydo qilgan.

Davlatimiz yoshlarining ta'lim-tarbiya olib barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishishi uchun barcha imkoniyatlarni ochib bermoqda. O'quv muassasalariga ta'lim - tarbiya jaroyanini yuqori saviyada tashkil qilish va rivojlantirish, iqtodirli yoshlarni tanlash va salohiyatini oshirish, yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalash, shu bilan birga ularni o'z qiziqishlari, qobiliyatlarini inobatga olgan holda kasb tanlashga tayyorlashdek mas'ulyatli vazifalar yuklatilgan.

Mamlakatimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarimiz, qomusiy olimlarimiz yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularni kasb-hunarga o'rgatish masalalari bo'yicha o'zlarining buyuk asarlarida qimmatli fikr mulohazalarni bildirib, bu borada nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida yo'l-yo'riqlar ko'satganlar. Buyuk qomusiy olimlardan **Abu Nasr Forobi** kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergen, chunonchi, ta'lim so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarni o'rganishga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglanib turibdiki, alloma kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelganini tan olgan.

Forobiy ta‘lim-tarbiya ta‘limotining asosi komil insonni shakllantirish, bunda yoshlarga o‘z vaqtida o‘rinli ta‘lim va tarbiya berish, ularni kasb-hunarga yo’llash orqali baxt-saodatga erishtirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam berish g’oyasidan iborat. Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to‘g‘risida o‘ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qildilar. Ayniqsa, maktabda beriladigan ta‘lim-tarbiya o‘quvchining turli fanlarga bo‘lgan tanlovlari munosabatini keltirib chiqaradi, ayrim bolalarda esa qaysidir fanlarga bo‘lgan qiziqishi tez seziladi, ya‘ni tasviriy, musiqaviy va boshqalar. O‘smyrlig davriga kelib, muammo yanada kuchayadi. Ko‘pgina o‘quvchilar va ota-onalarga qanday kasbni tanlashlari oldindan ma'lum bo‘ladi.

Ko‘pgina maktab bitiruvchilari keljakda kim bo‘lsam ekan yoki qaysi sohani mutaxassis bo‘lsam ekan? - degan savolni o‘z oldilariga qo‘yib, kasb tanlash muammosiga duch kelishadi. Natijada o‘quvchilar tomonidan mutaxassisliklar tasodifan tanlanadi. Hech qanday maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lmasdan yoki kasbiy kelajagini tushunib yetmasdan maktab bitiruvchilarining bir qismi darhol ishga joylashadi. Bunda kasb dunyosida o‘z o‘rnini qidirish o‘zgacha ma’noga ega bo‘ladi. Ularning bir qismi tanlovnинг to‘g‘riligiga o‘qishning birinchi yilidayoq ikkilanib qolishadi, boshqalari - mustaqil kasbiy faoliyatning boshida, ayrimlari kasb bo‘yicha 3-4 yil ishlagandan keyin, yoshlarning ayrimlari kasb maktabini bitirib, egallagan kasbi bo‘yicha ish topa olmaydilar va ishsizlar qatoriga qo‘shilib qoladi.

Demak, ular uchun kasb tanlash muammosi yana dolzarb bo‘lib qolaveradi. Psixologik toliqish, xavotirlanish, keljakka nisbatan ishonchsizlik, bilan qarash mehnat olamida o‘zini topishida ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘quvchilar oldida ishga joylashish muammosi paydo bo‘ladi. Bo‘lajak mutaxassis shaxsida yangi a’zolari orasida, turli yoshdagagi kishilar bo‘lgan jamoaga kirish, kasbiy faoliyatga qo‘niqish, yangi ijtimoiy rolni tushunib olish yana muammolarni keltirib chiqaradi. Moslashuv bosqichiga kasbiy ijtimoiy yetuklik va ijtimoiylashuv shakli kiritiladi. O‘zgargan kasbiy vaziyat yangi psixologik xususiyatlari sifatlarning shakllanishiga olib keladi.

Kasbiy ma‘rifat ta‘limi tizimida mehnat qilayotgan pedagoglar bolalarda ana shu besh turdan qaysi biriga qiziqish yoki mayllari borligini aniqlab, ularni rivojlantirib borishlari kerak. Mayl va qiziqishlarni shakllantirishda sinfdan tashqari ishlar, muzeylar, hayvonot bog‘i, botanika bog‘i, korxonalarga, tabiat bag‘riga sayohatlar uyushtirish ham samarali natijalar beradi. O‘quvchilarda kasb-hunarga mayl va qiziqish uyg‘otish, ularni shakllantirish hamda o‘stirish ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilsa kutilgan natjalarga erishish mumkin. O‘quvchilarni ongli va to‘g‘ri kasb tanlashga tayyorlash, ya‘ni kasbiy saralash o‘zaro bog‘liq va birgalikda amalga oshiriladigan quyidagi chorallardan iborat:

Kasbiy ma‘orif - o‘quvchilarga mahalliy sharoitlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini hisobga olib, u yoki bu kasb egalariga, mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojlarni, turli kasblardagi professional mehnatning mazmunini, kasbning insonga qo‘yadigan talablarini, mehnat sharoitlarini moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish sharoitlarini, kasbni egallash mumkin bo‘lgan o‘quv muassasalari turlarini ma‘lum

qilish, ya'ni bunda o'quvchilar turli kasblar va ixtisosliklarning xarakteri va o'ziga xosliklari bilan tanishadilar.

Kasbiy konsultatsiya - individual xarakterga ega bo'lib, ayrim o'quvchilarga ular egallamoqchi bo'lган kasbning xususiyatlari va o'z imkoniyatlarini to'g'ri anglashga ko'maklashishini nazarda tutadi.

Kasbiy diagnostika - o'quvchilarda kasb tanlash sub'ekti shaxsini uning ma'lum shaxs xususiyatlari tanlayotgan kasb talablariga mosligi nazarda tutiladi.

Kasbiy tanlash (saralash) – muayyan kasbni muvaffaqiyatli ravishda egallab, o'z oldiga qo'ygan fuqarolik (xususiy) burchini yuqori saviyada ado eta biladigan shaxslarni ajrata olishdan iborat jarayondir. Kasbiy bilimlar, shakllangan ma'lum ko'nikmalar, malakalarga asoslangan holda tekshirish me'zonlariga suyanib, omilkorlik bilan oqilona saralash o'tkaziladi.

Kasbiy yo'nalganlik - inson shaxsi yo'nalganligining bir ko'rinishi hisoblanib, bu holat uning chuqur shaxs tuzulmalarigacha kirib boradi. Kasbiy yo'nalganlik insonning individual-psixologik va individual-tipologik xususiyatlarigacha, uning qadriyatlar tizimiga, steriotiplariga, qobiliyatlari va qiziqishlariga borib taqaladi. Kasb tanlashdagi muhim omillari quydagilardan iborat:

1. Kasbiy tanlov-kasb-hunarlarni egallah uchun shaxsga qo'yiladigan malaka, talablarga, mone'lik qiladigan kasalliklar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida bo'lajak kasbiy yo'nalishni tanlash jarayonidir.

2. Kasbiy moslashuv-kasb-hunarni egallah jarayonida har bir bola, o'quvcining o'ziga xos tibbiy biologik va psixofiziologik xususiyatlarni hisobga oladi.

Kasbga yo'naltirishda quyidagi jihatlar asosida yo'naltirish maqsadga muvofiq: kasbiy bilim; kasbiy maslahat; kasbiy tashxis; kasbiy tarbiya.

Maktab psixologlari kasb tanlashga qiynalayotgan o'quvchilarga yordam tariqasida turli hil trening mashg'ulotlar yordamida oquvchining kasbga yo'nalgaligini aniqlashimiz mumkin.

### 1. "Kasblarni aytib ber" mashqi

Maqsad: kasblar haqidagi bilim doirasini kengaytirish

Ko'rsatmalar: quyidagi sohalarga tegishli bo'lган kasblar nomini yozib bering:

\_ non mahsulotlarini ishlab chiquvchi;

\_ uy-joylarni quruvchi;

\_ teleko'rsatuvlar yaratuvchi;

\_ jamoat tartib-intizomini nazorat qiluvchi;

\_ yo'l harakat transportlarini nazorat qiluvchi; mashqning davomiyligi 5 daqiqa.

### 2. "Kasblarni aniqla" (pantomima) mashqi

Maqsad: kasblar haqidagi bilim doirasini kengaytirish, guruhlar orasidagi psixologik muhitni yangilash.

Ko'rsatmalar: kichik guruhlarga qo'lizdagi kartochkalardaigi kasblarni pantamima orqali ovoz tovush chiqarmasdan tasvirlab berish so'raladi. Boshqalar esa bu qanday kasbligini topishi lozim. Mashqning davomiyligi 10-15 daqiqa.

### 3. "Kasblar harflarda" mashqi.

Maqsad: o'quvchilarni kasblar olamidagi bilmini kengaytirish.

Ko'rsatmalar: mashg'ulot davomida kichik guruhlarga bo'lingan holda, har bir guruh navbat bilan "Sh" harfidan boshlanadigan kasblarni aytishi lozim.

Takrorlanmagan holda navbat bilan kasblar aytildi. Masalan: shifokor, shaxtiyor, shaxmatchi va xokazo.

Hozirda yoshlarni ta'lim va kasb bilan ta'minlash masalasi dolzarb masalalardan bo'lib o'z kasbini egallay olmagan ko'plab yoshlarni xunarli qilish, ulardan jamiyatga keladigan foydalarni ta'minlash, ota – ona, mahalla, jamiyat oldida turgan katta masalalardan biri hisoblanadi. Kasbga qiziqish, undan manfaat topish insonning o'ziga, qolaversa ota – onasiga, jamiyatga kerakligini anglash muhim vazifalardan hisoblanadi. Bular esa yoshlari oldiga ko'plab vazifalarni qo'yadi:

O'zi uchun foydali bo'lgan kasbni to'g'ri tanlab olishni;

Bu kasbni yaxshi egallashni va o'z kasbni ustasi bo'lib etishishni;

Kasbi haqida ko'plab bilimlarni egallashni;

Kasbiga ijodiy yondosha olishni;

Mehnatsevar, o'z ishini o'zi tashkil qila oluvchi, kasbiga xos ahloqni egallashi;

O'zining shogirdlarini yaratishga intilishi;

Jamiyatga va ota – onasiga yaxshi nomlar bilan maqtov olib kelishi;

Kelajakda nafaqaga chiqishga ehtiyojlar paydo bo'lganda uning ishlarini davom ettiruvchi shogirdlarni yaratishi va o'z mifikabini qoldirishi;

Kasbini o'ziga xizmat qiluvchi va kelajagini ta'minlovchi hunar sifatida shakllantirishi.

Bu kabi talablar yoshlarga ko'pgina imkoniyatni yaratib beradi. Kasbga bo'lgan ehtiyoj yoshlarni oldiga qo'yadigan talablar bilan uzviy bog'liqidir. Yoshlar o'zlariga yoqqan kasblarni tanlaganlardagina unga qiziqadilar va unda o'zlariga foyda ko'radilar.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Asanova R.Z. Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi. Psix.f.n.....dis.-T., 2002. -137 b.

2. A.Jalolov. Kasb qanday tanlanadi? T., 2010 y. 62 b.

3. Klimov Ye.A. "Kak vibrat professiyu" Moskva, 1990.